

Azizova Dinara Rahmuddinovna

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

UZOQ MUDDAT DAVOLANAYOTGAN BOLALARНИ PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA O'QITUVCHI SHAXSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada gospital maktab o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy fazilatlari, ularni ishga qabul qilish talablari hamda ishdan chetlatish shartlari batafsil yoritiladi. Gospital maktab o'qituvchisi nafaqat ta'lif beruvchi, balki bolalar uchun ruhiy tayanch, motivator va psixologik qo'llab-quvvatlovchi sifatida maydonga chiqadi. Shuning uchun ham ularning sabr-toqat, mehribonlik, psixologik barqarorlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlari muhim ahamiyatga ega. Maqolada shuningdek, o'qituvchilarni ishga qabul qilishda qo'yiladigan talablar, jumladan pedagogik ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, psixologik chidamlilik va huquqiy me'yorlar ko'rib chiqiladi. Ishdan chetlatishning asosiy sabablari sifatida pedagogik kamchiliklar, bolalarga nisbatan noto'g'ri munosabat, sog'liq bilan bog'liq cheklovlar va etika qoidalarining buzilishi sanab o'tiladi. Ushbu maqola gospital maktab pedagoglari tayyorgarligi va faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy asoslarni yoritadi.

Kalit so'zlar: Gospital maktab, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, pedagogik kompetensiyalar, psixologik tayyorgarlik, inkluziv ta'lif, kasbiy etika, o'qituvchini ishga qabul qilish, ishdan chetlatish sabablari, innovatsion yondashuv, mehribonlik va sabr-toqat.

ЛИЧНОСТЬ УЧИТЕЛЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ, ПРОХОДЯЩИХ ДЛИТЕЛЬНОЕ ЛЕЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются личные и профессиональные качества учителей госпитальных школ, требования к их приему на работу, а также условия увольнения. Учитель госпитальной школы — это не только педагог, но и источник психологической поддержки, мотивации и эмоциональной стабильности для детей, проходящих длительное лечение. Поэтому такие качества, как терпение, доброта, психологическая устойчивость и адаптивность, имеют ключевое значение. В статье также анализируются требования к приему на работу учителей госпитальных школ, включая педагогическое образование, профессиональную подготовку, психологическую выносливость и правовые нормы. Основными причинами увольнения являются педагогические недостатки, неподобающее отношение к детям, медицинские ограничения и нарушения этических норм. Данная статья раскрывает научно-практические основы подготовки и профессионального развития педагогов госпитальных школ.

Ключевые слова: Госпитальная школа, личные качества учителя, педагогические компетенции, психологическая подготовка, инклюзивное образование, профессиональная этика, прием на работу учителя, причины увольнения, инновационный подход, доброта, терпение.

THE ROLE OF TEACHERS IN THE PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF CHILDREN UNDERGOING LONG-TERM TREATMENT

Abstract: This article explores the personal and professional qualities of hospital school teachers, the requirements for their recruitment, and the conditions for dismissal. A hospital school teacher is not only an educator but also a source of psychological support, motivation, and emotional

stability for children undergoing long-term treatment. Therefore, qualities such as patience, kindness, psychological resilience, and adaptability are crucial. The article also examines the requirements for hiring hospital school teachers, including pedagogical education, professional training, psychological endurance, and legal standards. The main reasons for dismissal include pedagogical shortcomings, inappropriate behavior towards children, health-related restrictions, and violations of ethical norms. This article provides scientific and practical foundations for improving the training and professional development of hospital school teachers.

Keywords: Hospital school, teacher's personal qualities, pedagogical competencies, psychological training, inclusive education, professional ethics, teacher recruitment, reasons for dismissal, innovative approach, kindness, and patience.

Kirish

Bolalar uzoq muddat davomida shifoxonalarda yoki reabilitatsiya markazlarida davolanishga majbur bo‘lganda, ularning psixologik va pedagogik rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Bunday sharoitda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi, motivatsiya beruvchi va ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Mazkur maqolada uzoq muddat davolanayotgan bolalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchining o‘rni, uning metod va yondashuvlari hamda samaradorlik omillari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

1. Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning pedagogik ehtiyojlari

Uzoq muddat kasalxonada yoki uy sharoitida davolanayotgan bolalar jismoniy va ruhiy jihatdan murakkab bosqichni boshdan kechiradilar. Ularning pedagogik ehtiyojlari quyidagilarga asoslanadi:

- Uzluksiz ta’lim jarayonini tashkil etish;
- Individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;
- Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash;
- Ijtimoiy aloqalarni rivojlantrish;
- Stress va depressiyani kamaytirish orqali o‘quv faoliyatini yengillashtirish.

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalar o‘zlarining kognitiv imkoniyatlariga muvofiq ta’lim olishlari kerak (Piaget, 1952). Masalan, leykemiya bilan kasallangan bolalar uzoq vaqt shifoxonada davolanish jarayonida bo‘lishlari sababli, ularga moslashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur

2. O‘qituvchining roliga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

O‘qituvchi uzoq muddat davolanayotgan bolalarga yordam berishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim:

1. Empatiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchi bolaning ruhiy holatini inobatga olib, unga hissiy yordam ko‘rsatishi lozim. Masalan, williams tadqiqotiga ko‘ra, stressga uchragan bolalar bilan ishlaydigan o‘qituvchilarining iliq va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi ularning ruhiy barqarorligini oshiradi.

2. Individual yondashuv: har bir bolaning sog‘lig‘i, ta’lim imkoniyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqib maxsus darslar tayyorlash zarur. Masalan, autizmga chalingan bolalar uchun vizual yordamchi materiallar bilan boyitilgan darslar samarali bo‘lishi aniqlangan.
3. Texnologiyalardan foydalanish: onlayn ta’lim platformalari, interaktiv darsliklar va o‘yinlar orqali bolalarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirish mumkin. 2021-yilgi unesco tadqiqotiga ko‘ra, masofaviy ta’lim uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun samarali bo‘lishi mumkin.
4. Motivatsiya berish: o‘quvchini rag‘batlantirish, uning har qanday yutug‘ini qadrlash va oldinga intilishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Dek tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, "growth mindset" yondashuvi bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
5. Samarali o‘qitish metodlari

Uzoq muddat davolanayotgan bolalar bilan ishslashda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

Differensial yondashuv: bolaning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirish. Masalan, disleksiya bilan og‘rigan bolalar uchun audiokitoblar va interaktiv materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘yin metodlari: ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning ishtirokchanligini oshirish. Masalan, vygotskiyning "o‘yin orqali o‘rganish" nazariyasi bu uslubning samaradorligini tasdiqlaydi.

Psixologik suhbatlar: o‘qituvchi bolalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilishi kerak. Ko‘ngilli psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlari yaxshi natijalar beradi.

San’at va musiqa terapiyasi: san’at va musiqa vositasida bolalarning ruhiy holatini yaxshilash. Masalan, kovaks tomonidan olib borilgan tadqiqotlar musiqaning stressni kamaytirishdagi rolini ko‘rsatadi.

Gospital maktab o‘qituvchisining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari

Gospital maktabda ishlaydigan o‘qituvchilar oddiy maktab o‘qituvchilaridan farqli o‘laroq, nafaqat ta’lim beruvchi, balki bolalar uchun psixologik tayanch, motivator va ruhiy qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak. Shu sababli, quyidagi fazilatlar muhim hisoblanadi:

Shaxsiy xususiyatlar:

1. Sabr-toqat va bardoshlilik – uzoq muddat kasallik bilan kurashayotgan bolalar kayfiyatining keskin o‘zgarishi mumkin. O‘qituvchi sabr bilan har bir bolaning ehtiyojiga mos yondashishi lozim.
2. Mehribonlik va hamdardlik – bolalar dardini tushunish va ularga doimiy mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish zarur.
3. Psixologik barqarorlik – bolalarning holatidan ta’sirlanib, depressiyaga tushmaslik va doimiy ruhiy muvozanatda bo‘lish lozim.
4. Moslashuvchanlik va kreativlik – o‘qituvchi har bir bolaning sharoitiga moslashib, unga individual yondashish usullarini ishlab chiqishi kerak.

2. Kasbiy ko‘nikmalar:

- Fan bo‘yicha chuqr bilim – gospital maktab o‘qituvchisi umumiy ta’lim maktabi dasturini mukammal bilishi lozim.

- Muloqot qobiliyati – bolaning holatini tushunish va unga mos yondashish uchun yaxshi kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak.
- Innovatsion yondashuv va texnologiyalardan foydalanish – cheklangan sharoitlarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalarini bilish muhim.
- Differensial ta’lim yondashuvi – har bir bolaning individual o‘quv sur’ati va ehtiyojlariga mos dars tashkil eta bilish lozim.

Gospital maktablarda ishslash uchun o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar umumiyl maktablardan farqli ravishda qat’iyroq bo‘lishi mumkin:

- Ma’lumoti: Pedagogika yoki psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lish. Pedagogik faoliyat bo‘yicha sertifikatlar yoki kasbiy tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bo‘lish.
- Ish tajribasi: Kamida 2-3 yillik o‘qituvchilik tajribasi. Inkluziv ta’lim yoki maxsus pedagogika sohasida ishlagan bo‘lsa, ustunlik beriladi.
- Psixologik tayyorgarlik: Kasal bolalar bilan ishslashda psixologik chidamlilik va tayyorgarlikni baholash uchun maxsus testlardan o‘tish.
- Maxsus treninglarda qatnashish va zaruriy ko‘nikmalarini shakllantirish.
- Sog‘lig‘i bo‘yicha talablar. O‘qituvchining sog‘lig‘i yaxshi bo‘lishi va bolalar uchun xavfsiz bo‘lishi lozim. Tibbiy ko‘rikdan o‘tgan bo‘lishi kerak (ayniqsa, yuqumli kasalliklar boryo‘qligini tekshirish uchun).
- Huquqiy talablar: Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlanmaganlik haqida ma’lumotnomasi. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lish.

Ishdan chetlatish sabablari

Gospital maktab o‘qituvchisi bolalar bilan ishlayotganligi sababli, unga qo‘yiladigan talablar ham yuqori bo‘ladi. Quyidagi holatlar ishdan chetlatishga sabab bo‘lishi mumkin:

1. Kasbiy va pedagogik kamchiliklar:

O‘quvchilarga nisbatan befarqlik yoki etarli darajada bilim bermaslik.

Darslarni sifatsiz o‘tkazish yoki metodik jihatdan noto‘g‘ri yondashish.

Innovatsion yondashuvlardan foydalanmaslik va bolalarning ehtiyojlarini inobatga olmaslik.

2. Bolalarga nisbatan noto‘g‘ri munosabat:

Bolalar bilan qo‘pol muomala qilish yoki psixologik bosim o‘tkazish.

Mehribonlik va hamdardlikning yetishmasligi.

Bolalarning hissiy holatini hisobga olmaslik va ularni tushunishga harakat qilmaslik.

3. Huquqiy va tibbiy sabablar:

Bolalarga zarar yetkazish yoki jismoniy zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yish.

Yuqumli kasallik aniqlangan taqdirda vaqtinchalik yoki doimiy ravishda ishdan chetlatish.

Jinoyat ishlari yoki pedagogik faoliyatga zid keluvchi harakatlar.

4. Etika va kasbiy intizomni buzish:

Ishga kechikish, dars qoldirish yoki intizomga rioya qilmaslik.

Hamkasblar yoki rahbariyat bilan ish muhitiga zid keluvchi munosabatda bo‘lish.

Ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar (masalan, alkogol yoki giyohvand moddalar iste’mol qilish).

Xulosa

Gospital maktab o‘qituvchisi oddiy pedagogdan ko‘ra ko‘proq mas’uliyatga ega bo‘lib, bolalarning ruhiy holatiga ham alohida e’tibor berishi zarur. Shu sababli, ishga qabul qilish jarayonida faqatgina mutaxassislik bo‘yicha bilim emas, balki insoniy fazilatlar, psixologik tayyorgarlik va moslashuvchanlik ham muhim rol o‘ynaydi. Ishdan chetlatish esa pedagogik va huquqiy me’yorlarga rioya qilmaslik, bolalarga nisbatan befarqlik yoki noto‘g‘ri munosabat, hamda sog‘liq bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra amalga oshiriladi. Uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun o‘qituvchining roli faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi. U, avvalo, ruhiy tayanch, motivator va do‘sst sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, o‘qituvchi nafaqat ta’limiy, balki psixologik yordam berish orqali bolalarning kelajakka umid bilan qarashiga va ta’lim jarayonida faol ishtirot etishiga hissa qo‘sadi. O‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi, hamkorlikdagi dasturlar yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shu tarzda bolalarga nafaqat ta’lim olish imkoniyati yaratiladi, balki ularning ruhiy holati ham mustahkamlanadi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Rahmuddinovna, a. D. (2024). Shaxsni tarbiyalashda psixologik omillar. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 190-195.
2. rahmuddinovna, a. D. (2024). Ta’lim jarayonining metodlari va shakllari. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 235-241.
3. rahmuddinovna, a. D. (2025). Emotsional intellektning hayotdagi muvaffaqiyat va professional sohadagi ahamiyati. *Yil tadqiqotchisi-2024*.
4. rahmuddinovna, a. D. (2025). Sun’iy intellekt va insoniylik: ijtimoiy psixologik oqibatlar. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 2(2), 181-186.
5. azizova, d. (2024). Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik va tashkiliy shartlari. *Tibbiyot, pedagogika va texnologiya: nazariya va amaliyat*, 2 (9), 543-552.
6. Rahmuddinovna, a. D. (2025). Zamonaviy oilalar rivojining o’ziga xos xususiyatlari. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 3(1), 685-689.
7. Rahmuddinovna, a. D. (2024). O‘qituvchi va o‘quvchi o’rtasidagi munosabatni boshqarish usullari. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 222-228.
8. Rahmuddinovna, a. D. (2024). Pedagogikaning asosiy tushunchalari va tamoyillari. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 229-234.
9. Rahmuddinovna, a. D. (2024). Ta’limda kommunikatsiya va muloqot psixologiyasi. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 242-247.
10. Rahmuddinovna, a. D. (2024). Motivatsiya va ta’lim jarayoni. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 196-201.
11. Maxmudovna, m. F. (2024). Maktabgacha yoshdagagi bolalarning rivojlanishida didaktik o‘yinlarning ahamiyati. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 120-127.

12. Maxmudovna, m. F. (2024). Oilaviy tarbiya va maktab ta'limi integratsiyasi: muammolar va yechimlar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 169-175.
13. Maxmudovna, m. F. (2024). O 'qituvchi va o 'quvchi o 'rtasidagi munosabatlar: motivatsiya va natijalar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 183-189.
14. Maxmudovna, m. F. (2024). Rivojlangan ta'lim tizimlarining o 'quvchilar shaxsiga ta'siri. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 135-140.
15. Maxmudovna, m. F. (2024). Innovatsion pedagogika va zamonaviy texnologiyalar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 155-161.